



PREPARATION OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS FOR INNOVATIVE ACTIVITIES ON THE BASIS OF INDIVIDUAL TECHNOLOGIES

Nurmamatov Ramazon Abdurashid o'gli

Master of the Pedagogical Institute of Karshi State University

ANNOTATION

In the context of globalization, education plays an important role in the comprehensive development of the individual, in the formation of the qualities of perfection and competence. Today's fast-paced world requires equipping students with short-term and reliable information, creating the necessary conditions for them to master the basics of various disciplines.

In modern conditions, the educational process is required to focus on the development, socialization of the individual and the development of independent, critical, creative thinking skills. Education that demonstrates these capabilities is called person-centered education.

Below are some of the comments on these issues.

Keywords: personality, education, person-centered education and its types, innovative forms of education, innovative methods, innovative tools, educational projects, portfolio, student portfolio

BULAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INNOVASIYON FAOLIYATGA TAYYORLASH

Nurmamatov Ramazon Abdurashid o'g'li,

Qarshi davlat universiteti Pedagogika instituti magistri

АННОТАЦИЯ

В условиях глобализации образование играет важную роль во всестороннем развитии личности, в формировании качеств совершенства и компетентности. Современный быстро меняющийся мир требует оснащения студентов краткосрочной и достоверной информацией, создания необходимых условий для овладения ими основами различных дисциплин.

В современных условиях в образовательном процессе требуется ориентировать на развитие, социализацию личности и развитие навыков самостоятельного, критического, творческого мышления. Образование, способное продемонстрировать эти способности, называется личностно-ориентированным образованием.

Ниже приведены некоторые комментарии по этим вопросам.

Ключевые слова: личность, образование, личностно-ориентированное образование и его виды, инновационные формы обучения, инновационные методы, инновационные инструменты, образовательные проекты, портфолио, портфолио студента.





ANNOTATSIYA

Globalashuv sharoitida ta'lim shaxsni xar tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muxim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr talabalarni xam qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart- sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Quyda ana shu masalalarga oid mulohazalar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va uning turlari, ta'limning innovatsion shakllari, innovatsion metodlar, innovatsion vositalar, O'quv loyixalari, portfolio, talabalar portfoliosi

KIRISH

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari

Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida o'quvchi va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo'ladi.

Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin: 1. Hamkorlik pedagogikasi

2. Pedagogik jarayonda shaxsni kuzda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);

3. O'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);

4. O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga, qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning o'qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);

5. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Graniskaya, V.D.Shadrikov texnologiyasi); 1. Hamkorlik pedagogikasi Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi

U o'zining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvini, tili va matematika o'qitishning ajoyib pedagogikasini ishlab chiqdi va hayotga tadbiiq etdi. Sh.A.Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:





1. bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda oliyjanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug'dirmos;
 2. bolaning qalbi va yuragini ulug'lomoq;
 3. boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;
 4. keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug'dirmoq;
 5. ideal tarbiya –bu o'z-o'zini tarbiyalamoq. Sh.A.Amonashvili o'zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi: ü insonparvarlik; ü shaxsiy yondashuv; ü oila pedagogikasining qo'shimcha imkoniyati; ü o'quv faoliyati. ü muloqot maxorati; Sh.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish o'ta cheklangan. Miqdoriy baholashdan ko'ra sifatli baholashga urg'u beriladi, ya'ni tavsif, natijalar paketi, o'z-o'zini baholash.
3. O'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);
U o'qitishning an'anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko'rsatib berdi.

Mulohaza va takliflar

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- talabalar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- talabalarining o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan

Shulardan biri Hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalangan holda darslarni loyihalashtirish haqida fikr yuritimiz.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson





(1987), Koliforniya universiteti professori – SH.SHaron (1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning «Birgalikda o'qiyimiz» metodi

Hamkorlikda o'qitishning «Birgalikda o'qiyimiz» metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o'quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqni ma'lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to'liq bajarilish natijasida o'quv materialining yaxlit o'zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari-komandani taqdirlash, o'quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Xulosa

Erkin fikrlash darslari

Erkin fikrlash darslari ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar va bu maqolalarning muhokamalariga bag'ishlanadi.

Erkin fikrlash darslaridan ko'zda tutilgan maqsad:

1. O'quvchilarning bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish.
2. O'quvchilarni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali ularning bilim olish va fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.
3. O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish.

Munozarali darslarning muvaffaqiyati qo'yidagi masalalarni to'g'ri hal etishga bog'liq:

o'quvchilarning darsga qizg'in tayyorgarlik ko'rishiga;

ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishiga;

o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini to'liq bayon qilishi va mantiqan dalillashiga;

o'quvchilarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash ko'nikmalarining hosil qilinganligiga;

o'qituvchining iqtidori, e'tiqodi, o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtira olish ko'nikma va malakalariga egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Erkin fikrlash darslarini o'tkazish uchun o'quvchilarga ko'pgina ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarni o'qishni tavsiya etamiz.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli ukitish texnologiyalari.
2. T.: “Fan va texnologiyalar” nashriëti, 2007. - 97 b.
3. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi ukitishning pedagogik texnologiyalari tuplami / Met.kull. “Urtamaxsus, kasb-dunar ta’limi tizimida innovaëion texnologiyalar” seriyasidan. - T.: TDIU, 2013.
4. Ishmudamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovaëion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. - T.: “Iste’dod” jamgarmasi, 2008. - 180 b.
5. Olimov T. Pedagogik texnologiyalar. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011
6. Ruzieva D., Usmonboeva M., Xrlikova Z. Interfaol metodlar: modiyati va kullanilishi / Metod.kull. - T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
7. Sayfurov D. Malaka oshirish tizimida masofaviy ta’limni tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari // Kasb-dunar ta’limi j. - T.: 2002. - №5.

